

PAPER

TALABALARGA DIRIJORLIK SAN'ATINI O'RGATISHNING O'ZIGA XOS USLUBLARI

Valijonov Shohrux Zohidjon o'g'li^{1,*}

¹O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti
2-bosqich magistr talabasi "Estrada orkestr dirijorligi" kafedrasini ilmiy rahbar: Professor Umarov.Sh.A

* valijonov@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada talabalarga dirijorlik san'atini o'rgatishning o'ziga xos uslublari, pedagogik yondashuvlar va amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati yoritiladi. Dirijorlik mahoratini shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy tajribaning o'rnini, talabalar ijodiy fikrlashini rivojlantirish, musiqiy eshituv va ritm tuyg'usini mustahkamlash masalalari tahlil etiladi. Shuningdek, individual va jamoaviy ishlash metodlari orqali bo'lajak dirijorlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida samarali o'qitish usullari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Key words: dirijorlik san'ati, pedagogik uslublari, musiqa ta'limi, dirijorlik texnikasi, amaliy mashg'ulotlar, ijodiy fikrlash, ritm tuyg'usi, musiqiy eshituv, kasbiy kompetensiya, ta'lim metodlari

Yosh avlod tarbiyasi, kelajak vorislarini tayyorlash dolzarb masala ekanligi "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dastur"i qonunlarida e'tirof etilgan. Qobiliyatli va iste'dodli yoshlarni to'g'ri tarbiyalab, jamiyatda o'z o'rniga qo'ya bilish ustoz san'atkorlardan katta mas'uliyatni talab etadi. Shu bois soha mutaxassislari zamon talabi darajasida ish yuritib, vazifalariga jiddiy qarashlari lozim. Shu bilan birga ta'lim-tarbiyani birga olib borish uchun darslik ham muhim o'rin tutadi. San'at yo'liga qadam

qo'ygan talaba-o'quvchilar nazariy va amaliy bilimlarini darslik orqali egallaydilar. Shulardan biri bo'lgan dirijorlik san'ati o'zining ko'pqirraliligi bilan ajralib turadi. Bu san'at yo'nalishi boshqa san'at turlaridan ancha yosh bo'lishiga qaramay (O'zbekistonda XX asrdan rivojlana boshladi), ko'pchilikda qiziqish uyg'ota oldi.

Dirijorlik san'ati tarixida Gektor Berlioz shunday degan, "Dirijor ko'rish va eshitish san'atiga ega bo'lmog'i lozim va yengil va ayni paytda kuchli bo'lishi darkor, so'zlar kompozitsiyasini, ularning

Compiled on: May 5, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

tabiati va qamrovini his qilishi, partituraning o'qiy olishi, shular barobarida alohida iste'dod egasi bo'lishi muhim. U yana o'zi va orkestr o'rtasida ko'zga ko'rinmas aloqa o'rnatilishi uchun kerak bo'lgan yana boshqa, deyarli noaniq xususiyatlarga ham ega bo'lishi shart. Agar dirijor orkestrga o'z hissiyotlarini yetkazish xususiyatiga ega bo'lmasa, unda orkestr ustidan "hukmronlik" qila olmaydi, unga o'z ta'sirini o'tkazishdan mahrum bo'ladi. Bu holda u orkestrning dirijori emas, balki oddiygina "takt uruvchi"ga aylanib qoladi, shunda ham agar umuman takti to'g'ri belgilash va ajratishni uddalay olsa!"

Dirijor - asar musiqasini ijodiy rivojlantiruvchi, uning ruhi bilan yashovchi, mashaqqatli. sabr-bardosh talab qiluvchi. mas'uliyatli kasbidir. Bir qaraganda osondek ko'ringan dirijorlik san'atining naqadar mushkul ekanligini ham ma'ham tushunib yetavermaydi. Bu kasbning murakkabligi shundaki. orkestrdagi cholg'ularning nafaqat mukammal ijrosi, balki uning sirlarini ham bilishi kerak. Chunki ana shu cholg'ular uyg'un bo'lgandagina ajoyib kuylar dunyoga keladi. Talabalarga dirijorlik san'atini o'rgatish murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u texnik ko'nikmalar, musiqiy tafakkur va psixologik tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida, xususan konservatoriya va san'at institutlarida ushbu san'atni o'rgatishning o'ziga xos uslublari mavjud.

-Nazariy va Amaliy Tayyorgarlikning Uzviyligi

-Dirijorlik Texnikasini Shakllantirish (Maxsus uslublari)

-Ta'limning Interfaol va Amaliy Usullari

-Psixologik va Estetik Tayyorgarlik

San'atlar ichida eng yoshi va kam o'rganilgani dirijorlik san'ati hisoblanadi. Dirijorlik amaliyoti uning nazariyasini ancha ortda qoldirdi. Biroq aynan nazariyaga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, dirijorlikka o'rgatish ishida unga ehtiyoj katta. Dirijorlik sohasida ta'lim berish uchun nazariy negiz yaratishga doir izlanishlar tinimsiz davom etayapti, biroq shu paytgacha, hatto eng fundamental tushunchalarning umum qabul qilingan va barcha uchun tushunarli bo'lgan ta'riflari yo'q. Terminologiyani ta'riflashda ham turli, ba'zan bir-biriga zid fikrlar mavjud. Ba'zilar dirijorlik - bu san'at emas, unga o'qitishning

hojati yo'q, shunchaki orkestr yoki xor oldida turib, taktga solish yoki metronomlashi kifoya, ya'ni ijro etilayotgan asar taktining alohida qismlarini qo'l bilan ko'rsatsa bas va dirijorning vazifasi shu bilan tugaydi, deb hisoblaydilar. Boshqalar esa, dirijorlik — faqat ichki histuyg'ularga asoslanadi, bu qandaydir sehirgarlik va bunga alohida qobiliyatli insonlar qodir, shu sababli dirijorlikka o'rganib bo'lmaydi, deb hisoblaydilar. Har ikkala fikr va unga o'xshash mulohazalarning xato ekanligini isbotlab o'tirish shart emas. Dirijorlik san'atiga bu kabi qarashlarni rad qiluvchi misollar hayotimizda ko'plab uchraydi.

"Dirijor" so'zi turli tillarda turlicha talaffuz qilinadi: nemislar "Dirident", italyanlar "Diridente", fransuzlar "Shef orkestre", inglizlar "Konduktor" deyilar.

Dirijorning o'zi, avvalo, musiqiy asarning g'oya va mohiyatini chuqur anglashi, shundan so'nggina uni orkestr va talabalarga yetkazib, musiqachilar uning maqsadlarini amalga oshirishlariga erishishi lozim. Dirijor partiturasidagi unsiz nota belgilariga hayot ato etishi lozim. Bunda u musiqani to'g'ri talqin etishi zarur. O'z ishini yaxshi bilmaydigan yoki iste'dodsiz dirijor tomoshabin oldida, talabalar oldida ham hattoki, eng ajoyib musiqiy asarni ham barbod qilishi mumkin. Ayniqsa, asar yangi, hali ko'pchilikka notanish bo'lsa. Shuning uchun yangi asarni ijro etishda dirijor juda ehtiyot bo'lishi kerak. Chunki uni avval eshitmagan tinglovchi dirijor xatolarini bastakorniki deb o'ylashi mumkin. Dars jarayonida dirijor talabalarning partitura bilan chuqur ishlashini tashkil etib, orkestrda ijro etilayotgan asarlarni puxta o'rganish va ongli ravishda o'zlashtirishlariga yo'l-yo'riq ko'rsatishi zarur.

O'qituvchi talabalarni dirijorlik faoliyatiga tayyorlash, albatta professional mustaqil kasbiylik talablaridan farq qiladi. Bunga yuqorida aytganimizdek, o'qituvchilik kasbini va musiqa darslarini mazmun va mohiyati nuqtai - nazaridan qarash o'rinli bo'ladi. Ya'ni, musiqa o'qituvchisi professional dirijor sifatida emas musiqa darslarida talabalarga orkestr ijrosini boshqarish layoqatiga ega bo'lgan dirijor sifatida namoyon bo'ladi. Bunda o'qituvchi - dirijor birinchi navbatda bolalar xor jamoalarini, orkestr jamoasini tuzilishi xususiyatlari bilan birga ularning ovoz

imkoniyatlarini nazariy va amaliy metodik asoslarini yaxshi bilishi kerak bo'ladi. Chunki, ixtisoslashtirilgan maktablarda har bir sinf yoki guruhlarda alohida uyushgan bir xor jamoasi yoki orkestr jamoasi sanaladi. Bu jamoalarning xor rahbarlari va dirijyori esa bevosita musiqa o'qituvchisining o'zidir.

Dirijyorlik kursining asosiy maqsadi bo'lg'usi musiqa o'qituvchilari talabalarga dirijyorlik sirlarini o'rgatish jarayonida ularni jamoaviy ijrochilikni boshqarishga tayyorlash bilan birga, ularga ma'naviy, mafkuraviy tarbiya berish, g'oyaviy, badiiy -estetik tarbiyalash, ularning badiiy ijrochilik mahoratini (xor, vokal ijrochiligi bo'yicha) o'stirish, asosiy va eng zarur dirijyorlik o'quvi va ko'nikmalarini shakllantirish, o'zbek qardosh, chet el kompazitorlari tomonidan yaratilgan eng yaxshi xor asarlari, shuningdek xor ijrosiga moslashtirilgan, qayta ishlangan xalq qo'shiqlari bilan yaqindan tanishtirib borish, turli janr, xarakter, mavzu va turli tarkib, tipdagi xorlar uchun mo'ljallangan asarlarni professional darajada tahlil qilaolish va ularga dirijyorlik qilaolish malakalarini rivojlantirishdan iborat. Dirijyorlik kursi fan sifatida o'quv mashg'ulotlari jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish bo'yicha tizimli o'quv ishlarini amalga oshirishni nazarda tutadi:

- Talabalarda milliy musiqamizga hurmat, muhabbat, uni o'rganishga qiziqishni, shu orqali ularda milliy ong, milliy g'oya, milliy mafkurani shakllantirish, ularni Davlat ta'lim Standarti talablariga javob beraoladigan yuqori malakali mutaxassilar qilib yetishtirish;

- Talabalarni bo'lg'usi musiqa o'qituvchisi, xor rahbari va dirijyori sifatida badiiy didini rivojlantirish, xor asarlarining badiiy qimmatini va ularning ijrosini boshqarish, baholay olishga o'rgatish;

- Dirijyorlikning eng asosiy ko'rsatmalari, ishoralari, harakatlar turlari, dirijyorlik texnikasining sirlarini o'rgatish, asarlarga dirijyorlik (mustaqil) qilaolish malakalarini hosil qilish.

Talabaniqning mustaqil dirijyorlik usullari qanchalik o'ziga xos bo'lsa va ular asarning mazmun-mohiyatiga, asosiy dirijyorlik qoidalariga qanchalik mos kelsa, dirijyorlik sxemalari va

imo-ishoralarda musiqaning badiiy xususiyatlari shunchalik yorqin va muvaffaqiyatli aks etadi, ijro yanada ilhombaxsh, ko'tarinki xarakter kasb etadi.

Partitura ustida dastlabki ishlash jarayonida "ma'noli (asoslangan) matn" usulidan foydalanish mumkin. Ushbu usulni qo'llashning mohiyati quyidagicha bo'lishi mumkin: masalan, o'qituvchi tomonidan ma'lum bir asar tanlanadi. U hamrohlik bilan ham, hamrohsiz ham bo'lishi mumkin.

Dirijorda tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, intizomlilik, tashkilotchilik iste'dodi uyg'unlashgan bo'lib, shu bilan birga jamoaga nisbatan xushmuomalalik, osoyishtalik va chuqur his eta bilish quw ati namoyon bo'lishi kerak. Orkestr yoki xor bilan yaxshi ishlash uchun dirijor ziyrak va oqil pedagog-tarbiyachi bo'lishi lozim. Bunga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, mardlik, halollik va prinsipiiallik kabi xususiyatlarsiz haqiqiy dirijorni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Talabalarga dirijorlikni o'rgatish jarayonida zamonaviy dirijorlik tilining asosi bo'lgan yuz ifodasi va qo'l harakatlarining mazmun-mohiyatiga alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki ushbu vositalar insoniyatning ko'p asrlik muloqot tajribasiga tayanib shakllangan bo'lib, ular orqali musiqaning emotsional va obrazli mazmuni aniq ifodalanadi. Shu bois, talabalarga qo'l harakatlarining serma'noligi, ularning turli hissiy holatlarni (muloyimlik, qat'iyat, iltimos, rad etish, da'vat, ogohlantirish va boshqalar) ifodalash imkoniyatlari chuqur tushuntirilishi lozim. Shuningdek, yuz ifodasining ijro jarayonidagi ahamiyati, uning orkestr bilan bevosita emotsional aloqa o'rnatishdagi o'rni ham amaliy mashqlar orqali shakllantirilishi kerak. Natijada, talabalar ijro etilayotgan musiqaning obrazli-emotsional mohiyatiga mos ravishda aniq va ifodali dirijorlik harakatlarini tanlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Ko'rinib turibdiki, dirijorning vazifalari juda ko'p va mas'uliyatli. Xo'sh, musiqa san'ati oldida shunchalik katta mas'uliyatga ega bo'lgan san'atkor qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerak? Dirijor va orkestr o'rtasida «ko'zga ko'rinmas aloqa» vujudga kelishi uchun zarur bo'ladigan intellektual, badiiy-ijodiy, professional va insoniy fazilatlarining ko'p qirrali majmuasi nimalardan tarkib topadi? - Bu, avvalo, keng ko'lamli musiqiy

bilimlardir. Dirijor ko'plab musiqiy asarlarni, ularning shaklini hamda turli davrlarga xos musiqiy til xususiyatlarini bilishi kerak. Orkestrning har bir musiqachisi qanday muammoga duch kelishi va uni bartaraf etish yo'llarini tushunish uchun dirijor orkestrdagi har bir cholg'uni yaxshi bilishi shart. Shuningdek, u orkestr partiturasini erkin o'qiy olishi, musiqa tarixi sohasida keng bilim va dunyoqarashga ega bo'lishi zarur.

Zamonaviy dirijorlik tili - yuz ifodasi va qo'l harakati tili sifatida insonning ko'p asrlik tajribasi bilan sinalgan muloqot vositasidan foydalanib, shakllangan. Qo'l harakati va yuz ifodasi tili hammaga tushunarli, serma'no va boydir. U darhol qaytariluvchi emotsional javobga sabab bo'ladi. Qo'l harakatlari katta hissiy - obrazli ifoda kuchiga ega: ular jahldor yoki muloyim, so'roq yoki tasdiqlovchi, iltimos qiluvchi yoki rad etuvchi, da'vatkor yoki taklif qiluvchi, kutib oluvchi yoki hayratlanuvchi, ogohlantiruvchi yoki tahdid qiluvchi bo'lishi mumkin va hokazo.

Talabalarga dirijorlikni o'rgatish jarayonida orkestr cholg'ularining tabiatini chuqur o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki har bir cholg'u o'ziga xos intonatsion-koloristik ifoda kuchi, texnik imkoniyatlari, ovoz ko'lamini va ijro tezligi bilan ajralib turadi. Shu bois, bo'lajak dirijor-talabalar ushbu xususiyatlarni puxta bilishlari, ularni eshitish orqali farqlay olishlari va amaliyotda to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirishlari lozim. Aks holda, ular repetitsiya jarayonida ijrochilar uchun texnik jihatdan noqulay yoki bajarilishi mushkul bo'lgan talablarni qo'yishi mumkin, bu esa ijroning badiiy saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun talabalarda nafaqat musiqiy talqin, balki har bir cholg'uning ifodaviy va texnik imkoniyatlarini chuqur tushunish, ularni ijodiy maqsadlarga mos ravishda qo'llay olish malakasi rivojlantirilishi kerak. Natijada, ular badiiylik va ijro texnikasini uzviy bog'liq holda anglab, haqiqiy dirijorlik mahoratiga erishish yo'lida muhim qadam qo'yadilar.

Dirijorning vazifasi — orkestrni o'z irodasiga bo'ysundirgan holda barcha musiqachilarning musiqani yakdil his qilishini ta'minlash, ularni birlashtirib, yuzta turli shaxsdan o'zining har bir harakatiga qarab ish tutuvchi yagona jamoa —

organizm yaratishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, talabalarga dirijorlik san'atini o'rgatish murakkab, ko'p qirrali va izchil pedagogik jarayon bo'lib, u nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar hamda ijodiy tafakkurning uzviy uyg'unligini talab etadi. Mazkur jarayonda talabalarining musiqiy eshituvini rivojlantirish, partitura bilan mustaqil ishlash malakasini shakllantirish, orkestr cholg'ularining texnik va ifodaviy imkoniyatlarini chuqur anglashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, dirijorlik texnikasining asosiy vositalari — qo'l harakatlari va yuz ifodalardan ongli va maqsadga muvofiq foydalanish orqali musiqaning badiiy-emotsional mazmunini to'liq ifodalashga erishiladi. Talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va jamoani boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim omil hisoblanadi. Natijada, puxta bilim va malakaga ega bo'lgan dirijor orkestrni yagona badiiy organizmga aylantira oladi, musiqachilarni umumiy g'oya atrofida birlashtirib, yuksak darajadagi badiiy ijroni ta'minlaydi.

References

1. Dirijorlik : O'quv qoi . / E. Toshmatov ; Mas'ul muharrir B.Azimov ; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashrivoti, 2008. — 264 b.
2. "Talabalarni xor dirijyorligi bo'yicha amaliy faoliyatga tayorlashning samarali shakl va uslublari". Kazakov Adilbek Madrimovich Urganch Davlat Universiteti San'atshunoslik fakulteti katta o'qituvchisi
3. Mansurva G. Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. O'quv metodik qullanma- Toshkent. 2008
4. Glinskiy M. Dirijyorlik san'ati tarixi bo'yicha insholar, / M. Glinskiy // "Musiqiy zamondosh". - 1916. 3. Potamanova L.Yu., Reneva N.S. Xorda